

## O'ZBEK TELEVIDENIYESINING QAYTA QURISH DAVRIDAGI FAOLIYATI

Ilmira Nazrullaevna RAHMATULLAEVA

San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Doktorant

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## UZBEK TELEVISION DURING THE PERIOD OF RESTRUCTURING (PERESTROIKA)

Ilmira Nazrullaevna RAKHMATULLAEVA

Candidate of Art History, Associate Professor

Doctoral student

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЗБЕКСКОГО ТЕЛЕВИДЕНИЯ В ПЕРИОД ПЕРЕСТРОЙКИ

Ильмира Назруллаевна РАХМАТУЛЛАЕВА

Кандидат искусствоведения, доцент

Докторант

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

UDC (УО'К, УДК): 654

### For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Rahmatullaeva I. N. O'zbek televideniyesining qayta qurish davridagi faoliyati // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1. — B.175-189.

<https://doi.org/10.36078/1710316622>

**Received:** December 20, 2023

**Accepted:** February 17, 2024

**Published:** February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sobiq sovetlar mamlakatidagi qayta qurish davri o'zbek televideniyesi faoliyati o'rganilgan va qayta qurish yillarining telejurnalistika yuksalishiga qo'shgan hissasi, saboqlari, uning telejurnalistika tendensiyalariga ta'siri tahlil qilingan. M. S. Gorbachyov boshlab bergan oshkorlik va demokratlashtirish siyosati ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye uchun ham qulay sharoit yaratdi. Oshkorlik senzuraning sezilarli darajada zaiflashtirdi: dolzarb siyosiy masalalarni muhokama qilish bo'yicha ta'qiq olib tashlandi, sovet tarixining "yopiq" mavzularini yoritish boshlandi, amalga oshirishga to'sqinlik qilgan kamchiliklarni ochishga yo'l ochildi. Yangi siyosat jurnalistika imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu davrda televideniye jonli efirlar, teledebatlar, telekonferensiyalar bo'lib o'tdi, yangi dasturlar, formatlar va janrlar yaratildi, yangi dasturlar va mashhur boshlovchilar paydo bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** televideniye; qayta qurish; so'z erkinligi; oshkorlik; mafkura; teleekran; videofilm; studiya; milliy televideniye; badiiy-publitsistik ko'rsatuvlar; teleko'prik; telemarafon mualliflik dasturi.

**Abstract.** The article examines the activities of Uzbek television during the period of restructuring in the former Soviet Union and analyzes its contribution to the development of telejournalism during the years of restructuring, its influence on telejournalistic trends. The policy of openness and democratization initiated by M. S. Gorbachev has created favorable conditions for mass media, including television. Openness (Glasnost) significantly weakened censorship: persecutions for discussing current political issues were lifted, previously "closed" topics of Soviet history were addressed,

paving the way for addressing shortcomings hindering its implementation. The new policy expanded journalistic possibilities. During this period, live broadcasts, televised debates, teleconferences, new programs, formats, and genres were created on television, new programs and emerging figures became known.

**Keywords:** television; restructuring; freedom of speech; openness; ideology; tele-screen; video film; studio; national television; artistic-publicistic performances; teleconference; author's program of telethon.

**Аннотация.** В статье изучена деятельность узбекского телевидения в период перестройки в Узбекистане и проанализирован вклад перестроечных лет в повышение качества тележурналистики, его влияние на тележурналистские тенденции. Политика открытости и демократизации, начатая М. С. Горбачёвым, создала благоприятные условия для средств массовой информации, в том числе и телевидения. Гласность значительно ослабила цензуру: сняты преследования по обсуждению актуальных политических вопросов, начато освещение «закрытых» тем советской истории, открыт путь к раскрытию недостатков, препятствующих ее реализации. Новая политика расширила возможности журналистики. В этот период на телевидении прошли прямые эфиры, теледебаты, телеконференции, созданы новые программы, форматы и жанры, появились новые программы.

**Ключевые слова:** телевидение; перестройка; свобода слова; прозрачность; идеология; телеэкран; видеофильм; студия; национальное телевидение; арт-журналистика; телепрограмма; авторская программа; телемарафон.

### Kirish

KPSS MKining (1985-yil aprel) Plenumida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning jadallashtirish kursi yangi rahbariyat va butun sovet jamiyatining maqsadi deb e'lon qilinganiga qaramay, hali bu davrda "qayta qurish" degan atama yo'q edi. Mamlakatda buyruqbozlik, siyosiy kompaniyabozlik, ura-urachilik usullari keng qo'llanilgani tufayli 1987-yildan rahbariyat konservatizm, islohotlarga qarshi kuchlar to'g'risida ochiq gapira boshladi.

KPSS MK Yanvar Plenumida (1987) M. Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati" mavzusida ma'ruza qildi. Unda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish emas, endi ijtimoiy hayotni demokratlashtirish vazifasini qo'ydi va oshkoralik kursini e'lon qildi. "Oshkoralik tufayli o'zgarishlarning muhim omiliga, g'oyalar va orzularning ifodachisiga aylangan matbuot jamiyatning intellektual ozod bo'lishida, o'tmishni va yuz berayotgan hodisalarni anglashida juda katta rol o'ynadi" (3, 274). 1988-yil bo'lib o'tgan KPSSning Butunittifoq XIX konferensiyasida sovetlar tarixida birinchi marta kun tartibiga siyosiy tuzumni chuqur isloh qilish to'g'risidagi masala qo'yildi. Bu konferensiyaga tayyorgarlik va uni o'tkazish jarayonidagi odatdan tashqari demokratizm partiyaning jamiyatni isloh qilishdagi roliga ishonchni oshirdi. Konferensiya qarorlarida sotsialistik qadriyatlar bilan liberalizmning ayrim doktrinalarini uyg'unlashtirish ko'zda tutildi.

Sovet davlatining ommaviy axborot vositalari sovet jamiyatining ajralmas bir qismi edi. Shu tufayli ham unda sovet davrining barcha qarama-qarshiliklari, yutuq va muammolari ko'zgudek aks etardi.

### Asosiy qism

Ortda qolgan davrni yodga olganda, biz sovet davri yaratgan axborot manzarasiga baho berarkanmiz, uning hammasi yolg'ondan iborat edi, deyolmaymiz, aksincha, faqat haqiqat yozilardi, degan fikrni ham aytish qiyin. Sovet media makoni bir tomonlama, haqiqiy hayotga to'g'ri kelmaydigan manzaraga ega edi. Bitta xalq, bitta partiya, bitta mafkura, bitta media tizimi mavjud bo'lib, sovet ommaviy axborot vositalari hamda jamiyatga faqat mana shu rakursdan baho berish mumkin edi. Shunga qaramay, ommaviy axborot vositalari targ'iboti va tizimi haqida so'z ochganda, umumiy xulosalar qilish juda ham qiyin, negaki, mavjud holatni bitta tizimga joylashning o'zi mumkin ham emas. Bu SSSRning so'nggi o'n yilligida pishib yetilgan holat so'z erkinligi hosilasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Sovet Ittifoqida media tizimi targ'ibotning qudratli quroli bo'lganiga qaramay, ko'pincha tizimning ichki kayfiyatinigina yoritardi.

Qayta qurish yillarida adabiyot zamonaviy dunyoning dolzarb mummolarini ko'tarishga harakat qila boshladi. Bu davrgacha yozilgan ko'plab qo'lyozmalar o'z qadri, dolzarbligi, ahamiyatini yo'qotib, ilgari man qilingan ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiyot maydonga chiqdi. Arxiv papkalarida yotgan, mualliflar vafotidan bir necha yil o'tib qayta tiklangan nasriy asarlar jurnal va gazetalar sahifalarida paydo bo'ldi. U yoki bu jurnallarda e'lon qilinganidan so'ng qator asarlar atrofida nihoyatda o'tkir jinoyatchilikning o'sishi, jamiyatda va unda qad ko'targan turli mezonlarga ishonchning poymol bo'layotgani, giyohvandlik, inson uchun ham, tabiat uchun ham yetkazilayotgan ma'naviy dahshatli inqirozlar tilga olinadigan bahslar yuzaga keldi. Tarixning "oq dog'lari"ni to'ldiradigan adabiyot va kino asarlari paydo bo'la boshladi.

80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida OAVda shu paytgacha sukut saqlangan muammolar tilga olinib boshlandi. Mamlakatda hukm surgan qizil saltanat mustamlakachiligi, yakkaboshlikdan iborat ma'muriy-buyruqbozlik ish uslubi, mamlakatda avj olib ketgan qarindosh-urug'chilik, yulg'ichlik, poraxo'rlik, tilyog'malik, laganbardorlik va boshqa shuning singari yaramas illatlarga qarshi ijodkor ziyolilar ham oshkora va pinhona kurash olib bordilar, jamoatchilikni bunday illatlarga qarshi kurashga chog'ladilar.

M. S. Gorbachyovning yangi siyosati haqida Y. N. Zaslavskiy shunday ta'kidlaydi: "Oshkoralik nafasini dastlab matbuot o'quvchilari payqadilar. 1986–1987-yillarga kelibgina, u teleekranga ko'cha boshladi. Amerika bilan dastlabki teleko'priklar, "12-qavat", "Beshinchi g'ildirak", "Nigoh"

ko'rsatuvlari, jonli efirlar, tonggi va tungi dasturlar, jonli efir orqali jamoatchilikning bahslari aks etgan ko'rsatuvlar, xalq deputatlari syezdlari millionlab teletomoshabinlarni mamlakatda yuz berayotgan voqealar bilan tanishtira boshladi. 1986–1989-yillarda televideniyeining jonli ko'rsatuvlari deyarli 30 martaga ko'paydi" (8, 32).

Sovet televideniyesining qayta qurish yillaridagi tuzilmasi avvalgi yillardagidan farq qilmasdi. Birinchi programma — axborot ko'rsatuvlarini qamrab olgan va mamlakatning asosiy umumittifoq kanali hisoblanib, unda mamlakat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy masalalari, shuningdek, yuz beradigan muhim hodisalar yoritilgan. Bu kanal orqali kundalik "Vaqt" informatsion dasturi namoyish etilib borilgan. Ikkinchi dastur axborot-publitsistik dasturi bo'lib, uning axborot ko'rsatuvlari Moskva va mamlakatning g'arbiy sarhadlariga uzatilgan. Uning tarkibiga axborot ko'rsatuvlari, adabiy-dramatik ko'rsatuvlar va telespektakllar kiritilgan. Uchinchi dastur orqali ilmiy-ommabop va o'quv ko'rsatuvlari tayyorlanib, Moskva va mamlakatning Yevropa qismi hududlariga uzatilgan. Bu dastur maktab o'quvchilari, maxsus va kasb-hunar, texnik o'quv dargohlari, xalq xo'jaligining turli sohalari, sirtqi talabalarga mo'ljallangan. To'rtinchi dastur orqali sport-badiiy ko'rsatuvlar tayyorlanib, ular Moskvaga, mamlakatning qator g'arbiy va markaziy qismiga uzatila boshlandi. Sovet Ittifoqining sharqiy hududlarida yashaydigan teletomoshabinlar Markaziy televideniyeining Birinchi dastur orqali uzatiladigan ko'rsatuvlarini "Orbita", "Vostok" sun'iy yo'ldosh tizimlari orqali tomosha qilish imkoniyatiga ega edilar. Sovet Ittifoqi parchalanguniga qadar umumittifoq ko'rsatuvlar hajmi ortib bordi. Lekin yangi sharoitlarga qaramay, u hokimiyatning kuchli nazoratida edi. Y. N. Zasurskiy bu davrga quyidagicha ta'rif beradi: "O'nlab yillar davom etgan mafkuraviy bosim natijasi o'laroq, sovet televideniyesining har bir matnning senzura tortilishidan qutulish jarayonlari nihoyatda mashaqqatli bo'ldi (8, 32)".

O'zbek televideniyesi sovet televideniyesining tarkibiy bir qismi bo'lgani, u uzoq yillik mafkuraviy iskanja ta'sirida faoliyat yuritganiga qaramay, 60-, 70-, 80-yillarda xalqchilligi, millat ruhiyatiga yaqin loyihalari, xalqning qalbi, turmush tarziga monand qarashlar targ'iboti uni o'ziga xos yuksak bir maqomga chiqarib qo'ygandi, xalq unga quloq tutar, uni tinglar, unga ishonchi kuchli edi. Tamomila partiya va davlat qaramog'ida yashash, sotsialistik realizm qolipida faoliyat ko'rsatilish sharoitida ham, u millat tarbiyachisiga aylangandi ("O'talar so'zi — aqlning ko'zi", "Televizion miniatyuralar teatri", "Romantika", "Adabiy teatr" va ko'plab kinoko'rsatuvlari orqali).

70-yillar o'rtalaridan video imkoniyatlari katta epik asarlarga murojaat etishga yo'l ochgan bo'lsa, 80-yillarning boshlariga kelib, yirik epik asarlarning teleekranga moslashtirilish jarayonlarida o'ziga xos tajriba egallanildi. Jumladan, Oybekning "Navoiy" romani asosida "Navoiy", O. Yoqubovning "Ulug'bek

xazinasi” va “Diyonat” romanlari asosida tayyorlangan shu nomdagi videofilmlar televideniye yirik hajmdagi badiiy asarlarning televideniy variantlarini yaratish yo‘lidagi ijobiy qadamlar sifatida baholanadi. O‘rta asrlarda feodal jamiyati muhitida yashab, o‘zining progressiv g‘oyalari bilan insoniyatga nur, ziyo, ilm-ma’rifat yog‘dularini sochishga intilgan buyuk ajdodlarimizning hayot yo‘llarini televideniye ekraniga olib chiqishda ma’lum tajribalar to‘plangandi. Lekin rejissyor M. Yunusovning buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur siymosiga murojaati o‘sha paytdagi ayrim respublika rahbarlarining “siyosiy xushyorligi” tufayli juda katta to‘siqqa uchradi. Boburning buyuk shaxs ekanligi tahqirlanib, “ma’rifatli zolim” deb ta’riflandi. Ssenariy ana shunday qarashlar ta’siriga uchradi, natijada qilingan ishlar to‘xtatildi (7).

80-yillarning boshlarida, “qayta qurish”dan biroz avval sobiq Sovet Ittifoqida sifat va intizom masalasi ko‘tarilgan va jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni fosh etish boshlangandi. Jamiyat o‘zining tanazzulga uchrash sabablarini axtarayotgan, aybdorlarini izlayotgan jarayonlar televideniye qanday aks etganini bilish, albatta, qiziq tuyuladi. “Mehmonxonadagi mashmashalar” deb nomlangan teleko‘rsatuv Toshkent shahar mehmonxona xo‘jaligida davlat mulkini talon-toroj qilish, poraxo‘rlik kabi illatlarni ochib tashlagan bo‘lsa, shuningdek, “Kalavanning uchi”, “Tramvay depoga boradi...” kabi felyetonlarda ham ayrim kamchiliklar haqida bong urila boshlandi. Toshkent tug‘ruqxonalardan biri bosh shifokorining qing‘ir yo‘llar bilan boyluk to‘plagan haqidagi xat asosida uning hashamatli uy-joylari ko‘rsatilib, sotsializm bunday yashash, o‘zgalar hisobiga kun ko‘rish sovet odami uchun kommunistik axloq uchun yarashmasligiga urg‘u qilindi. Afsuski, hali bu jarayonlarda jurnalistlar asl aybdor jamiyatning o‘zi ekani, siyosiy tuzumning o‘zi chirib ketgani, u endi mamlakatni boshqara olmay qolganini ayta olmasdilar, ma’muriy buyruqbozlik sharoitida, egasizlik, umumiy hisoblangan sotsialistik mulkni boshqarilish jarayonlarida talon-taroj hollariga sababchi sifatida inson omilini ko‘rsatishga majbur edilar (6). Shunga qaramay, ushbu jarayonlar jurnalistlar uchun tanqid borasida dastlabki tajribalarni egallash sari qo‘yilgan dadil qadamlar sifatida baholanilishga loyiqdir (muallif – D. Yoqubov, rejissyor – M. Mahkamov).

Ayni shu jarayonlarda televideniye sekin-asta suxandongagina emas, balki ekranda birinchi marta voqea joyidan hikoya qiluvchi, voqealarni tahlil qiluvchi telejurnalistga ehtiyoj seza boshlagandi.

1985-yilgi “qayta qurish” davrigacha uning tashkiliy tuzilmasi tarkibiga jiddiy o‘zgarishlar kirib ulgurgandi. “1984-yili Markazqo‘mning yangi ideologiya sekretari ilk qadamini o‘z sohasining bilimdonlari bo‘lgan rahbarlarni almashtirishdan boshladi. Matbuot qo‘mitasining raisi Ziyod Yesenboyev, “Sharq” nashriyatining bosh direktori Islom Shog‘ulomov, “Sovet O‘zbekistoni” gazetasining bosh muharriri Maqsud Qoriyev,

teleradiokompaniya raisi Ubaydulla Ibrohimov, uning televideniye bo'yicha muovini Ubay Burhon 1985-yilda ishdan bo'shatildi (5, 84). Sohaga televideniye umuman aloqasi bo'lmagan, uzoq yillar davomida partiya tuzilmalarida faoliyat yuritgan kishilar tayinlandi. Bu rahbarlar televideniye ijodiy xodimlari faoliyatini nazar pisan qilmalik, ularning ijodiy ishlarini oyoqosti qilish, taniqli o'zbek telerejissyorlarining xalq boyligiga aylangan asarlarini o'chirib tashlash, ittifoqdan kelgan hamkasblari orqali ularning ijodlarini kamsitishgacha borishdi.

1985-yilda O'zbekiston televideniyesiga "Betacam" rusumli videokameraning kirib kelishi ijodiy faoliyatga o'ziga xos yengillik va'da qila boshladi. Ungacha "BSN" rusumli og'ir texnik uskunalari ko'chma kichik stansiya ishlab, yoritish jihozlari, ovoz yozish jihozlari bilan o'n nafarga yaqin ijodiy va texnik xodim suratga olish jarayonida qatnashishga majbur bo'lardi. Yangi kamera tufayli janrlarning asosiy xususiyatlari: hayotiylikni ta'minlash mumkin bo'ldi, qahramonni studiyaga emas, muxbiri qahramonning xonadoniga, qahramon ishlaydigan manzillarga borishi va suratga olishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Holbuki, televideniye ocherk, portret janrlari ham mavjud bo'lib, ular ko'proq quruq matn bilan ifodalanardi, kichik hajmdagi 16 millimetrlilik, oq-qora tasvirdagi kinoplyonkalar orqali qahramon faoliyatini aks ettirish, uni keng planda o'rganish imkoni mavjud emas, ko'pincha asosiy voqea va hodisalar tasviri texnik nosozlik tufayli ekran yuzini ko'rmay qolar edi.

1985-yil rejissyor N. Razzoqov sirdaryolik cho'lquvarlar xonadoniga tashrif buyurib, bu yerdan yangi yil uchun maxsus ko'rsatuvni tasvirga tushirdi. "Yangi yil oqshomida" deb nomlangan musiqali badiiy-publitsistik ko'rsatuvda boshlovchi D. Yoqubov xonanda N. Haydarovning xonadonidan ham suhbat tayyorladi. Texnik imkoniyat ko'rsatuvning mazmun-mundarijasini boyitish, kameraning hayot ich-ichiga kirishi televideniye makonida yangi kamolot va'da qila boshladi.

Xuddi shu yillari Markaziy televideniye birinchi dastur orqali namoyish etilgan "Hujjatli ekran" (har oyning so'nggi payshanba kuni, 75 minut, 21:30 da efirga uzatilgan), "Kinopanorama" (boshlovchilar — Z. Gerdt, E. Ryazanov, V. Merejko va boshqalar), "Mo'jizasiz mo'jizalar" (haftalik, oyning birinchi va uchinchi shanba kunlari, boshlovchi — S.Kapitsa), "Hayvonot olamida" (haftalik, har oyning ikkinchi va to'rtinchi shanba kunlari, V. Peskov va N. Drozdov), "Sayohatchilar kinoklubi" (haftalik, yakshanba kunlari, boshlovchi — Y. Senkevich), "Sotsialistik mamlakatlar televideniye oqshomlari", "Katta qurilish loyihalarining ish kunlari" (oyiga ikki marta), "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" (har hafta, boshlovchi V. Leontyeva) singari ko'rsatuvlari o'zbek teletomoshabinlari didi, qiziqishlarini ma'lum bir darajaga ko'targan, g'oyaviy-badiiy mahsuldorligi bilan televideniye ma'rifatini shakllantirgani aniq. Ayni shu mavzular ko'tarilgan parallel ko'rsatuvlar o'zbek televideniyesida mavjud edi. Mamlakat kinosi yangiliklari,

qardosh xalqlar va jahon kinosan'ati yulduzlari haqida hikoya qiluvchi "Kino olamida" (H. Akbarov), hujjatli filmlar talqini, tahliliga bag'ishlangan "Ko'zguda hayot" (N. Karimov), mamlakatlar, ularning geografiyasi, tarixi, fuqarolari yashash tarzi haqida hikoya qiluvchi "Olamga sayohat" (B. Muhamedov, D. Yoqubov), tabiat, uning o'ziga xos dunyosi haqida hikoya qiluvchi "Hayvonot olamida" (boshlovchi biolog Z. Egamberdiyev), "Multipanorama" (boshlovchi N. Po'latova) kabi ko'rsatuvlar ittifoq televideniyesining milliy televideniye sharoitidagi variantlari bo'lib, ularda texnik imkoniyatning cheklanganligi shundoq ko'rinib tursa-da, tomoshabinlar auditoriyasi uchun o'zbek tilida tayyorlangani bilan ham tushunarli va dilga yaqin edi.

O'z xususiyatlari, qonuniyatlariga ega bo'lgan televideniye asarlaridan bir yo'la millionlar zavq olishlari, kishilarning kundalik hayotiga singib ketgan televizion ko'rsatuvlarning g'oyaviy mazmuni chuqur va ravshan bo'lishi, ularning badiiy formalari rang-barang bo'lishi haqida hamisha qayg'urish lozimligi, televideniye uchun filmlar katta talabchanlik bilan tanlanishi, televizion spektakllarning adabiy zamini puxta ishlanishi, konsert programmalarini tuzishda esa musiqa san'atining ilg'or an'analari, taraqqiyoti, kamoloti, musiqa janrlarining xilma-xilligi va ularning inson hayotida tutgan o'rni juda katta ekanligini yodda tutish lozimligini taqozo etishiga urg'u bergani holda, "Madaniy hayotimizning muhim sohalaridan biri — kinematografiyada salkam yarim asrdan beri jo'sh urib kelayotgan ijodiy jarayonni ko'rsatish uchun o'zbek, rus, ukrain, tojik kinosan'atkorlari qo'lni qo'lga berib ijod etishlari natijasida erishilgan yutuqlarni ta'riflash uchun va, nihoyat, ovozsiz va ovoqli, rangli va keng ekranli filmlarda xalqimiz hayoti, samarali mehnati qanchalik keng tasvirlanganini ko'rsatish uchun efirga qo'yilayotgan filmlar ham rang-barang bo'lishi lozim", — deb ta'kidlaydi professor H. Akbarov (1, 56).

Qayta qurish davrigacha televideniya jurnalistlar faqat ko'rsatuvni tayyorlash, ssenariyni yozish ishlari bilangina mashg'ul bo'lardilar, ko'rsatuvni tayyorlashning "muallif–rejissyor–rejissyor assistenti–tasvirchi–ovoz rejissyori–chiroqchi–boshlovchi" dan tashkil topgan zanjirning asosiy qismi bo'lgan suxandon ko'rsatuv fikr-g'oyalarining asosiy yetkazuvchisi sanalardi. Shu bilan birga, televideniya o'z sohasining bilimdonlari bo'lgan shaxslarni taklif qilish ham o'zining muvaffaqiyatli natijasini berayotgan, F. Musajonov, J. Teshaboyev, M. M. Do'st (kino ko'rsatuvlari), E. Vohidov ("G'azal oqshomi"), O'. Hoshimov ("Bahs") qatorida san'atshunos Sh. G'aniyeva, jurnalistlar N. Ochilov, L. Hotamova singari jurnalistlarning chiqishlari ko'rsatuvlarning tabiiyligini ta'minlayotgan, bu o'z o'rnida ko'rsatuvlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ijodiy tajribadan aniq bo'layotgandi. Qayta qurish davri ostonasida ayrim jurnalistlar ko'rsatuvlar boshlovchilari darajasiga ko'tarildilar, lekin ular barmoq bilan

sanalarli darajada kam edilar. Ayni shu jarayonlar “Axborot” ko‘rsatuvida hayotning bir lavhasi badiiy ifodalangan publitsistik chiqishlari bilan yosh jurnalist D. Yoqubov nomi qayd qilina boshlandi. Uning inson, tabiat haqidagi “O‘rik”, “Ona”, “Xorazm gujumlari”, “Aldangan bodom” kabi telelavhalari ijodkorning nozik tuyg‘ulari, vatan haqidagi qarashlari, onaga muhabbat, xalqimizning azaliy qadriyatlari tarannumiga bag‘ishlangan videolavhalari o‘zining insoniylik, milliy va umumbashariy qadriyatlar talqiniga bag‘ishlangani bilan tomoshabinlar e‘tiboriga tushdi.

Markaziy televideniye dasturlarida G‘arb va Amerika axborot vositalaridan o‘rnak olgan boshlovchilarning qiyofalari ko‘chirilib, ilgari Sovet Ittifoqi uchun noma‘lum bo‘lgan janrlar o‘zlashtirila boshlandi. Albatta, ulardan eng ko‘p tarqalgani siyosiy tok-shou janrida edi. O‘zbekiston televideniyesidagi ko‘rsatuvlar dasturlarida bu janr unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Ushbu davr o‘yinlar shaklidagi ko‘rsatuvlari bilan esda qolgan. 13-sentabr 1986-yili MT dasturlarida qayta tiklangan “Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rsatuvi davrning ramzi sifatida uning kamchiliklarini kulgu tig‘i ostiga olgan tanqidiy ko‘zguna aylandi. “Balli, qizlar!”, “Balli, yigitlar!” ko‘rsatuvlari ham televizion o‘yin shaklida bo‘lib, qatnashchilar orasidan o‘z sohasining bilimdoni axtarilar edi. Ko‘rsatuv o‘zining rekreativlik vazifasiga ko‘ra, taniqli xonandalar, mashhur vokal-cholg‘u ansambllar ijrolaridagi ijrolar bilan boyitilardi. Bu davr ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar dasturlarini uchta katta guruhga ajratish mumkin: kulgu, musiqiy va o‘yin dasturlari. MT dasturlarida o‘yin, o‘yinga qurilgan tomosha, realiti-shoular ko‘paygani kabi, bu jarayonda o‘yin ko‘rsatuvlar ham ko‘payganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston televideniyesida tayyorlangan “Balli, qizlar!”, “Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rsatuvlari ham aynan MT ko‘rsatuvini ham shakl, ham mazmun jihatidan takrorlaganini aytib o‘tish lozim.

Har bir telekanal faoliyatida kulgu ko‘rsatuvlari ham muhim o‘rin tutadi. Ijodkorlar aynan satira va kulgu tig‘i orqali jamiyatdagi ayrim illatlar ustidan kuladilar, ularni rivojlanish uchun g‘ov bo‘layotgan qirralariga to‘xtaladilar. Taniqli o‘zbek qiziqchilari M. Xolmedov, X. Tojiboyev, O. Asomov ijodiga bag‘ishlangan “Shunchaki hazil” ko‘rsatuvlari tayyorlandi. “Shunchaki hazil” ko‘rsatuvi muvaffaqiyatining omili, eng avvalo, san‘atkorlar tomoshabinlar bilan jonli aloqada bo‘lganligida edi. Chunki sahnadagi aktyorlar improvizatsiya asosida yangi topilmalar qilib, ijod qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Vaholanki, teatrda qo‘yilgan spektakllardan olingan parchalar ham yosh qiziqchi aktyorlarning ichak uzdi latifa va hikoyalari o‘rtasida tomoshabin uchun yangilik bo‘ldi” (2, 401).

O‘zbekiston KP MKining XVI plenumi ommaviy axborot vositalari uchun aniq yo‘nalishlar ko‘rsatib, tanqid qilishga yo‘l ochilgach, satirik ko‘rsatuv uchun yangi mavzularda ijod qilish



uchun yo‘l ochildi. Ayrim rahbarlarning dangasalik va loqaydligini fosh qiluvchi satirik ko‘rsatuv Markazqo‘mning aralashuvi tufayli “Hayotimizda kuladigan hech qanday kamchiliklarimiz yo‘q. Biz kommunizmning moddiy-texnik bazasini mustahkam qurib, olg‘a sari dadil qadamlar bilan borar ekanmiz, yo‘limizda uchrayotgan eskilik sarqitlarini surib tashlab, bunday sayoz, bir yoqlama talqin qilingan ko‘rsatuvlarga chek qo‘yishimiz kerak” degan xulosalar bilan ko‘rsatuv yopildi” (2, 349).

Qayta qurish davrining eng diqqatga sazovor qirralaridan biri, dinga e‘tibor masalasi bo‘ldi. “Ma‘rifatnoma”, “Juma oqshomi” singari ko‘rsatuvlarda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy idorasi rahbari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bilan hamkorlikda tayyorlangan ko‘rsatuvlar xalqimiz ma‘naviy kamoloti yo‘lida ulkan ijodiy burilish yasadi.

1985-yilda mamlakatda boshlangan “qayta qurish” jarayonlari O‘zbekiston TVsida osonlikcha amalga oshmadi, uzoq davrlar davomida shakllanib qotib qolgan stereotiplardan voz kechish qiyin bo‘ldi. Markaziy va respublika ommaviy axborot vositalarida boshlangan demokratik jarayonlar teledasturlardagi mavzularga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmadi, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi achchiq haqiqatlar, o‘tkir mavzular, millatlar o‘rtasida kuchayib borayotgan nizolar televideniye ekraniga olib chiqilmadi. “Qayta qurish” boshlangan dastlabki yillarda TVning qator tahririyatlari qatorida “Yoshlik” studiyasi ijodkorlari ham mamlakatda yuz berayotgan voqealarni yoritishga intilmadilar, davr nafasini to‘la anglamadilar.

80-yillarning ikkinchi yarmi o‘rtalariga kelib, badiiy-publitsistik ko‘rsatuvlar tayyorlash jarayonlarida biroz jonlanish paydo bo‘lgani kuzatiladi. 70-yillar boshlarida tayyorlangan ommaviy dasturlarga qayta murojaat qilina boshlandi. “Iqbol” (1986), “Quvnoqlar va zukkolar” (1987) singari ko‘rsatuvlar paydo bo‘ldi. Bu ko‘rsatuvlar ma‘naviy-ma‘rifiy hamda ko‘ngilocharlik elementlari bilan uyg‘unlashgan, tanlov shakliga qurilgan edi.

O‘zbekistonlik bir guruh yoshlarning sa‘y-harakatlari bilan 1987-yili o‘tkazilgan Toshkent–Dushanbe teleko‘prigi orqali ikki soat mobaynida o‘zbekistonlik va dushanbelik yoshlar bir-birlari bilan muloqotga kirishdilar. O‘zbekiston tomonidan to‘plangan ijodkor yoshlar o‘z hayotlari, ijodiy faoliyatlari haqida tojikistonlik tengdoshlariga gapirib berdilar. Teleko‘prikda Tojikistonning mashhur san‘atkorlari J. Murodov, M. Hamroqulova, shoira G. Safiyeva, o‘zbekistonlik yosh ijodkorlar qo‘shiqchi Y. Usmonova, shoir M. Yusuf, jurnalist K. Bahriyev, shoira F. Kamolovalar ishtirok etishdi.

Muallif va boshlovchi O. Mo‘minovning “3-studiya” ko‘rsatuvi demokratiya va oshkoralik boshlangan yillarda tayyorlanib, tomoshabinlar e‘tiboriga havola etildi. Bu ko‘rsatuvda MTning o‘sha yillarda tayyorlangan “Nigoh” ko‘rsatuviga taqlid bor edi. O. Mo‘minov, F. Zokirov, A. Ochilov,

R. Toshpo‘latova singari yoshlar mamlakatda 70 yil davomida yuz bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ahvoli, xalqning turmush tarzi haqida fikr yuritdilar. Tabiiyki, 70 yil davomida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida nihoyatda ko‘p muammolar yuz berdi. Ko‘rsatuv boshlovchilarining o‘zlari tanlagan mavzu atrofida to‘plagan bilim va mahoratlarining yetishmasligi dastlabki ko‘rsatuvlardayoq ko‘zga tashlanib qoldi. Garchi ijodkorlar juda yaxshi ishni boshlashga harakat qilgan, Lenin, Stalin, Xrushev, Brejnev singari “dohiy”lar yashagan davrlarga tavsif berishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, ko‘rsatuvda tarix bilimdonlarining qarashlari, ilmiy izlanishlari, hayotiy faktlar emas, balki yosh ijodkorlarning og‘zaki subyektiv fikrlari asosiy o‘rinni egallab oldi. Albatta, shu o‘rinda “3-studiya” ko‘rsatuvi juda ko‘p mavzularni birinchi bo‘lib talqin qilgani, muallif O. Mo‘minovning voqealar haqidagi qiziqarli hikoyalari, ularning mohiyatini ochishga, qahramonlarni harakatda tasvirga olishga intilishlari odamlarni mustaqil fikrlash va voqea-hodisalarni tahlil qilishga o‘rgatish sari ijobiy qadamlargina emas, balki o‘zbek telejurnalistikasida ham yangi sahifalar boshlanayotganidan dalolat edi. O. Mo‘minovning qator ko‘rsatuvlari mavzu va pozitsiyaning mavhumligi tufayli to‘xtab qolgan bo‘lsa-da, ularda yillar davomida milliy televideniya shakllanib ulgurgan stereotiplardan voz kechish jarayonlari boshlangani, jamoatchilik turli masalalarda o‘z fikrini ochiq-oydin aytishga muvaffaq bo‘lgani ko‘zga tashlandi.

“Qayta qurish” yillarida televideniya yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning kengaygani quyidagi ishlarda ko‘zga tashlanadi. 1990-yil 24-iyun “Xalqaro Yoshlar” kuni munosabati bilan O‘zbekiston televideniyesida kun bo‘yi davom etgan videokanal studiyada faoliyat yuritayotgan yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlariga yordam berdi (Boshlovchilar, jurnalistlar O. Mo‘minov, I. Rahmatullayeva, S. Qo‘shoqova). Yosh teleijodkorlar yangi uslub va shakllarda mamlakat yoshlari hayotini ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan yoritishga intildilar. Yoshlar televideniya to‘plagan uzluksiz marafonlarda teleboshlovchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan malaka va tajribalardan unumli foydalangan holda telekanalni 15 soat mobaynida davom ettirib turdilar. “Qishloq haqida o‘ylar”, “Bolalar”, “3-studiya”, “Siz kutgan uchrashuvlar”, “Teatr muammolari”, “Nikoh haqida so‘z” singari ko‘rsatuvlarda nafaqat ko‘tarilayotgan mavzularning, shuningdek, aks ettirilayotgan shaklning ham yangi va originalligi keng tomoshabinlar auditoriyasi tomonidan e’tirof etildi. Eng muhimi, hayotga tanqidiy munosabatlar paydo bo‘ldi, davrning turli qatlamlaridagi kamchiliklar ro‘y-rost, oshkora bildirildi. Studiyaga o‘rnatilgan telefon orqali tomoshabinlar videokanal haqidagi fikrlarini bildirib turdilar. Ushbu muvaffaqiyatdan ruhlangan “Yoshlik” studiyasi ijodkorlari 1990-yilda Orol fojialariga bag‘ishlangan telemarafon o‘tkazdilar va jamoatchilikni ogohlikka chorladilar.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarga

qaramay, televideniya tanqidiy ko'rsatuvlar tahdid ostiga olinib, ko'proq maqtov avj ola boshladi. Qishloq hayoti, undagi quvonch va tashvishlar, oddiy odamlar hayotida yig'ilib qolgan muammolar haqida hikoya qiladigan "Qishloq haqida o'ylar" (muallif – S. Qo'shoqova) ko'rsatuvidan ham faqat ijobiy xulosalar kuta boshlandi. "3-studiya" ko'rsatuvi muallifi O. Mo'minovning novatorlik ishlari TVning rahbarlari tomonidan keskin qoralandi va natijada ko'rsatuv to'xtatildi. 90-yillarning boshlarida dasturlarda paydo bo'la boshlagan reklama-tijorat xarakteridagi ko'rsatuvlar o'zining g'oyaviy asossizligidan tashqari, "ishonarsiz faktlar", hayotni bo'yab ko'rsatishga urinishlar bilan dasturlarga yangilik olib kira olmadi. Xuddi shu yo'nalishda tayyorlangan "Yoshlik" studiyasi ijodkorlarining shanba, yakshanba kunlari ertalabdan to kunduzga qadar davom etadigan videokanallari ham muvaffaqiyat qozona olmadi.

Televideniya shu yillarda "Hayot quvonchlari va tashvishlari" (D. Yoqubov, M. Mahkamov), "Xat va hayot" (Sh. Qosimov), "Qishloq haqida o'ylar" (S. Qo'shoqova), "3-studiya" (O. Mo'minov), "Oila" (Z. Muqodirova), shuningdek "Axborot" dasturining yetakchi jurnalistlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq kechayotgan voqealarni juda ko'p muammolarni kesimida yoritishga intildilar. D. Yoqubov muallifligidagi "Hayot quvonchlari va tashvishlari" ko'rsatuvi milliy televideniya qayta qurish davri ovozi bo'la olgan mualliflik dasturlaridan biri sifatida umuminsoniy qadriyatlar: ezgulik, muhabbat, sadoqat, el-yurtga sodiqlik singari xalqimizning eng yaxshi fazilatlarini, milliy urf-odatlar, an'analarimiz talqiniga bag'ishlangan, ijtimoiy-siyosiy voqealar ko'tarilgan oshkorali nafasi ufurgan birinchi jiddiy talqindagi, millionlab tomoshabinlar qalbi, ruhiyatiga zamon nafasini olib kirgan ko'rsatuvdir. Dastlab aynan uning sahifalarida o'zbek xalqining hayoti, ayniqsa, qishloqdagi og'ir turmush tarzi, o'zbek ayolining mavjud tuzumda oson bo'lmagan, uning oila, jamiyat tomonidan shafqatsizlarcha zulm ostida yashashi, hududlardagi siyosiy-ijtimoiy va ekologik muammolar ko'tarilib, ko'rsatuv publitsistika yo'nalishdaligiga qaramay, unga badiiylik, telesan'atning tasviriy-ifodaviy yechimlarining uyg'unligi bois badiiy-publitsistik janr darajasidagi suhbat, ocherk, esse, surishtiruv jurnalistikasi, sharh singari janrlar muqoyasasi bilan mukammallik kasb etdi va millionlab auditoriya tomonidan tomosha qilindi. Afg'on fojiasi, uning millatimizga yovuz tahdidlaridan tortib, paxta dalasida zaharli dorilar iskanjasida qolib zaharlanayotgan millat, Tojikiston alyuminiy zavodining atrof-muhitni zararlayotgani, Qashqadaryo Jovuz qishlog'ining ko'chirilishi bilan bog'liq muammoli masalalar ko'tarildi. Ko'plab masalalar ko'rsatuv ijodkorlari aralashuvidan so'ng o'z yechimini topdi.

Ayni shu jarayonlarda televideniya kirib kelgan yangi mavzular haqida ham aytib o'tishimiz lozim. Sho'ro mafkurasi urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni yo'q qilishga qaratilgan

siyosat edi. Shubhasiz uni amalga oshirishda “oynai jahon” imkoniyatlaridan keng foydalanildi. Qator o‘n yilliklar davomida oynai jahonda yangicha turmush tarzi, yangicha an‘analar, xalqimiz turish-turmushiga tamoman yot urf-odatlar targ‘ib qilindi. Aksincha, milliy bayramlarimiz, ular bilan bog‘liq udumlar keskin qoralandi. Eng unutilgan tarix, mingyilliklarga borib taqaladagan urf-odatlarimiz, ulug‘ allomalarimiz qadamjolari haqida hikoya qiluvchi “Oltin beshik” ko‘rsatuvi (1989-yil)da ijodkorlar (muallif – E.Shukur, rejissyor – N.Sa’dullayev) ilk bor murakkab, serko‘lam mavzuni talqin qilishga erishdilar. Ko‘rsatuv sahifalarida ilk bor Ahmad Yassaviy, Imom-at Termiziy, Bahovuddin Naqshband singari ulug‘ allomalarimiz haqida keng ma‘lumotlar berildi. “Oltin beshik” ko‘rsatuvi Sho‘ro davrida unutilgan an‘analar va urf-odatlar, zardushtiylik va buddizm, islom va zardushtiylik aralashib ketgani tufayli ta‘qiqlangan urf-odatlarini tiklash yo‘lidagi ilk urinishlar edi. Holbuki, uzoq yillar davomida ham o‘zbek, ham qozoq, ya‘ni turkiy tilli, o‘n ikkinchi asrning o‘ziga xos shoiri Ahmad Yassaviy necha yillar mobaynida mistik sanalib kelindi. Uning ijodini o‘rganish qaltis ish hisoblanardi. Shoirning sharafiga qurilgan, O‘rta Osiyodagi eng go‘zal maqbara 63 yoshidan so‘ng tarki dunyo qilib uzlatda yashagan yerto‘laning yaqiniga qurilgan, u shu qorong‘u yerto‘lada yashagan kishini ajablantiradigan nur bilan yo‘g‘rilgan pand-nasihatlari “Hikmatlar”ni yozgan. Bu hikmatlar teran insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan. G‘oyat ochiq, samimiy, ommabop tilda yozilgan hikmatlar kishini adolatga chaqiribgina qolmasdan, ko‘ngilga yaxshilik, muruvvat va go‘zallik tuyg‘ularini alangalatadi.

1990-yilning boshlariga kelib, sobiq ittifoqda mavjud tuzumning yaroqsizligi ko‘zga tashlanib, deyarli hamma sohalarda markazlashgan tizimning o‘z vazifalarini uddalay olmasligi natijasida xalq hayotining iqtisodiy jihatdan tubdan yomonlashishi yuz bergan bir paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashiga bo‘lib o‘tgan saylovlar mamlakat va davlat hayotidagi muhim siyosiy voqealardan biri bo‘ldi. Birinchi marta xalq tomonidan qo‘yilgan erkin nomzodlar ham saylovlarda g‘olib chiqdilar. Ular orasida xalqimizning adabiyot va san‘at vakillari, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, rassomlar, haykaltaroshlar, olimlar, davlat va jamoat arboblari bor edilar. Sessiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri televideniye orqali uzatilishi mamlakat aholisiga hukumatning yuqori darajadagi yig‘ilishlarini kuzatish imkonini berdi va oshkoralik, demokratiyaning ko‘rinishi sifatida bu jarayon OAVga, bosma nashrlarga ham kuchli rezonans berdi. Ushbu jarayonlarda so‘z erkinligi kirib bormagan matbuot nashri qolmadi hisob. Millat orzulari aks etgan chiqishlar o‘zbek milliy matbuotining XX asrdagi A. Qodiriy maqolalari nashr etilgan bosma nashrlardan keyingi eng yaxshi namunalardan bo‘lib qoldi.

1986–1991-yillarni qamrab olgan “Oshkoralik va qayta qurish” siyosati o‘zining izchilligi bilan ajralib turadi. 1986-yilning bahor oyida KPSSning navbatdagi syezdida ommaviy axborot vositalariga tanqidni biroz kamaytirish kerak degan ko‘rsatma berildi. Lekin ko‘p o‘tmay Bosh sekretar M.Gorbachyov bu fikrini kun tartibidan olib tashladi. Yangilanayotgan sotsializmning “insoniy qiyofasi”ni ko‘rsatish uchun, mamlakat rahbariyati chet el radioeshittirishlariga halaqit qiluvchi ta’sirlarni kamaytirish haqida qaror qabul qildi. Radioefirlar muxlisga musaffo holda uzatiladigan bo‘ldi. Sovet xalqi “dushman ovozlari”ni eshitmasliklari uchun televideniye efirida jozibador jonli ko‘rinishdagi “Nigoh”, “12-qavat”, “Yarim tun va undan keyin” singari ko‘rsatuvlar tayyorlana boshlandi. Leningrad televideniyesi orqali tayyorlangan “Jamoatchilik fikri” va “600 sekund” singari ko‘rsatuvlarni ko‘rish istagida moskvaliklar televizorlariga maxsus moslamalarni o‘rnata boshladilar. Uchinchi dastur orqali tayyorlangan “Xayrli oqshom, Moskva!” ko‘rsatuvi ham ijtimoiy publitsistika va ko‘ngilocharlik elementlari qo‘shilgan ko‘rsatuv sifatida muxlislar e’tiborini qozona boshladi. “Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi ushbu ko‘rsatuvlar sovet tizimiga “dushman ovozi”dan ko‘ra qattiqroq zarba berishini o‘ylab ham ko‘rmagan bo‘lsalar kerak” (4, 21).

O‘zbek tomoshabini ham ulkan sovetlar diyorining Markaziy televideniyesi orqali tomosha qilinadigan ko‘rsatuvlarni tomosha qilib borardi. 80-yillarda katta auditoriya to‘playdigan “Nima? Qachon? Qayerda?”, “Balli, qizlar!”, “Quvnoqlar va zukkolar klubi”, ko‘ngilochar ko‘rsatuvlari o‘zbek tomoshabinining ham o‘ziga xos didini shakllantirib ulgurgan edi. Shunga qaramay, milliy televideniye ko‘rsatuvlari sifat jihatidan markaz loyihalaridan biroz ortdaligiga qaramay, xalqimizning yashash tarzi dunyoqarashi, o‘y-xayollari, tashvishlariga monandligi bilan katta auditoriyani qamrab olar, bu o‘z o‘rnida ko‘rsatuvlarni tayyorlash ishiga mas’uliyat bilan qarashni talab qilardi.

### Xulosa

1991-yilga kelib, televideniye shunday bir maqomga ko‘tarilgan ediki, boshqa ommaviy axborot vositalariga xos bo‘lmagan qator vazifalar va rollarni bajarar edi. U yangi tushunchalar va butun hayotni tushunish, idrok etishga o‘rgatadigan tilni yaratgan, modellar, standartlar, xulq-atvor namunalarni taklif qiluvchi, tomoshabinlarning sevimli mashg‘ulotlarini, turmush tarzini, urf-odatlarini, kiyinish madaniyatini boshqaradigan, taqqoslash uchun modellar va prinsiplarni taqdim etadigan, hayotni rejalashtirish va qurishga yordam beradigan ijtimoiy institut vazifasiga ko‘tarilgan edi. Uning ta’sirini jamiyatning barcha jabhalarida kuzatish mumkin edi. Ko‘plab ilg‘or ilmiy va texnik g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, qudratli, eng zamonaviy, doimiy yangilanib turadigan texnologiyalarga asoslangan muntazam ravishda axborot beruvchi

va auditoriya o'rtasidagi aloqada qudratli vositachi edi. Shu yillar o'zbek televideniyesi davlat va hukumatning asosiy tashviqotchisi bo'lganiga qaramay, ortda qolgan chorak asrlik ijodiy faoliyat davomida u xalqimizning qalbiga kirgan, uning orzu-istaklarining yorqin ifodachisi bo'lib qolgan edi. Bu haqiqiy ma'nodagi ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lgan televideniye edi. Partiya syezdlari, hukumat farmonlari targ'iboti aks etgan ko'rsatuvlar emas, aynan unda ma'naviyat masalalari ko'tarilgan ko'rsatuvlar millatni shakllantirishga ko'proq xizmat qildi, aynan ular katta reytingga ega bo'ldilar.

O'zbek televideniyesi o'zining tarbiyachilik maqomiga ko'tarilgan ko'rsatuvlari bilan inson tarbiyasiga xizmat qildi, uni adolatni anglash, adolat uchun kurashishga o'rgatdi. Uning ma'naviyat masalalariga ko'p murojaat qilishining sabablaridan biri va asosiysi, biz yashaydigan zaminda asrlar davomida axloqiylik, ma'naviy kamolot, komillik falsafasi yuksak maqomga ko'tarilganidadir. Jamiyat uzoq tariximiz davomida aynan yuksak ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan insonlarni ulug'lagan. Ushbu zaminda yashab o'tgan mutafakkirlar, faylasuflar, shoiru fuzalolar o'z qarashlari bilan insoniyat yashashining o'ziga yarasha qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, ularga amal qilgan.

Garchi o'zbek televideniyesi respublika bosma matbuoti singari o'tkir, dolzarb mavzularni ko'tarishda u qadar dadil bo'la olmaganiga qaramay, "qayta qurish yillari"da aynan ijod erkinligi sharoitida telejurnalistlar o'z ishi uchun mas'uliyatli, jamiyatdagi jarayonlarga ta'sir eta olishni o'z bo'yniga oladigan erkin ijodiy shaxsga aylandilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov H. Kino va televideniye olamida. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991. — 208 b.
2. Asadullayev M. Televideniye nazar va amaliy asoslari. — Toshkent: Mumtoz so'z nashriyoti. 2021. — 548 b.
3. Ergashev Sh. Jahon tarixi. Eng yangi davr. 1945–2017 yillar. — Toshkent: O'zbekiston, 2019. — 274 b.
4. Кузнецов Г.В. ТВ-журналистика: критерии профессионализма. — Москва: Издательство роип-холдинг, 2002 — 220 с.
5. O'tayev O'. Televideniye — davr ko'zgusi. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2010. — 272 b.
6. Yoqubov Dadaxon bilan suhbatdan. 2021 yil iyun oyi.
7. Yunusov Maqsud bilan suhbatdan. 1999 yil may oyi.
8. Засурский Я.Н. Телерадиоэфир: история и современность. — М., 2005. — 237 с.

#### References

1. Akbarov Kh. *Kino va televidenie olamida* (In the world of cinema and television), Toshkent, Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 208 p.
2. Asadullaev M. *Televideniye nazar va amaliy asoslari* (The basics of the theory and practice of television), Toshkent, Mumtoz suz nashriyoti, 2021, 548 p.
3. Ergashev Sh. *Zhaxhon tarixi. Eng yangi davr. 1945–2017 iillar* (World history. The newest era. 1945-2017), Toshkent, Uzbekiston, 2019, 274 p.

4. Kuznetsov G.V. *TV-zhurnalistika: kriterii professionalizma* (TV journalism: criteria of professionalism), Moskva, Izdatel'stvo ROIP-kholding, 2002, 220 p.
5. Utaev U. *Televidenie - davr kuzgusi* (TV-mirror of the era), Toshkent, Uzbekiston nashrieti, 2010, 272 p.
6. *Yakubov Dadakhon bilan suhbatdan* (From an interview with Ekubov Dadakhon), 2021 yil iyun' oyi.
7. *Yunusov Maksud bilan suhbatdan* (From an interview with Yunusov Maksud), 1999 yil may oyi.
8. Zasurskii Ya. N. *Teleradioefir: istoriya i sovremennost'* (TV and Radio broadcast: history and modernity'), Moscow, 2005, 237 p.